
Vodorod sulfiddan import o’rnini bosuvchi natriy sulfid olindi

O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti olimlari, Toshkent Davlat texnika universiteti Olmaliq filiali va “Kimyoviy texnologiya” MChJ va Muborak GQIZ mutaxassislari birgalikda fakelda yoqib yuborilayotgan nordon gazlar tarkibidan vodorod sulfidni ajratib, undan natriy sulfid olishga erishishdi. Olmaliq tog’-kon metallurgiya zavodida rudadan qimmatbaho, noyob metallarni ajratish uchun natriy sulfid tonnasi 900 AQSh dollaridan yiliga 1 350 tonna import hisobiga keltirilmoqda.



Natriy sulfidi tog’-kon korxonalarida flotatsion reagent sifatida keng qo’llaniladi. Uning flotatsion qo’llanilishi sohasi turlicha. Asosiy iste’molchi rangli metallurgiyadir. Rangli metallurgiyada sulfid va natriy gidrosulfidi asosan rangli metallar rudalarini boyitishda qo’llaniladi. Flotatsiya jarayonida mis, qo’rg’oshin, rux, molibdenli rudalarni boyitishda reagent-regulyatorlardir. Sulfid va natriy gidrosulfidi mineral yuzadagi yopishgan yig’uvchilarni desorbsiya qiladi. Natriy sulfidi oltingugurtli bo’yoq ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida, tekstil sanoatida paxtadan qilingan matolarni bo’yashda, charm sanoatida terilardan tuklarni yo’qotishda va bo’yoq sanoatida ishlatiladi.

Hozirgi kunda Muborak GQIZda yiliga 2000 tonna natriy sulfid ishlab chiqarishni tashkil etish bo’yicha ishlar olib borilmoqda, natijada yiliga 1215000 AQSh dollari hisobidagi valyuta mablag’lari iqtisod qilinadi.